

ABDULLAXON II DAVRIDA XIVA VA BUXORO MUNOSABATLARI

Nurullayeva Donoxon Azamat qizi

*Mamun University, Faculty of “Social, Humanitarian, and
Exact Sciences”, History Department, 1st-year student*

Tel: +998 94 525 15 88

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoro va Xiva xonliklari o‘rtasidagi siyosiy, harbiy va iqtisodiy munosabatlar tahlil qilinadi. Abdullaxon II Movarounnahrda markazlashgan davlatni mustahkamlashga intilgan bo‘lib, uning siyosati Xiva bilan bo‘lgan munosabatlarga ham ta‘sir ko‘rsatgan. Maqolada ushbu ikki xonlik o‘rtasidagi raqobat, ittifoqlar va harbiy to‘qnashuvlar haqida tarixiy manbalar asosida fikr yuritiladi. Shuningdek, Abdullaxon II ning Xiva bilan olib borgan diplomatik harakatlari va bu munosabatlarning mintaqa tarixidagi o‘rni baholanadi.

Kalit so‘zlar: Abdullaxon II, Buxoro xonligi, Xiva xonligi, siyosiy munosabatlar, harbiy yurishlar, diplomatiya, Movarounnahr, iqtisodiy aloqalar, tarixiy manbalar, Markaziy Osiyo tarixi.

Abdullaxon (to‘liq ismi Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abulxayrxon) 1534-yil Miyonqol yaqinidagi Ofarinkent qishlog‘ida tug‘ilgan, 1598-yil Samarqandda vafot etgan va Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etiladi. U O‘zbek davlatchiligi tarixida o‘chmas iz qoldirgan hukmdor hisoblanib, Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yetuk hukmdori, davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma‘rifat, madaniyat homiysi. Abdullaxonning otasi Iskandar sulton o‘n besh yoshga to‘lganida Jonibek sulton unga Samarqand So‘g‘dining eng so‘lim diyori bo‘lmish Ofarinkent viloyati boshqaruvini topshirgan. Jonibek sulton 1529-yil Karmana shahrida o‘z ajali bilan vafot etgach, Iskandar sulton Miyonqoldan chiqib Karmanaga keladi va bu yerdagi hokimiyatni ham o‘z qo‘liga olib, Miyonqol va Karmanani boshqara boshlaydi. Abdullaxon ibn Iskandarxon tug‘ilganida otasi Iskandarxon hali Ofarinkent hokimi edi. Yosh Abdullaxon tarbiyasi uchun dastlab Sayidbiy Jaloyirni otaliq qilib, oddiy xalq

tabaqasidan bo‘lmish Amir Yormuhammadni “atka”si (otaliq) qilib tayinlaydi. Keyinchalik, u ham otasi bilan birga Karmanaga keladi va asta-sekin siyosat maydoniga kirib kela boshlaydi. Tarixiy manbalarda uning “Xon” taxallusi bilan she’r yozgani haqida ma’lumotlar mavjud.

Abdullaxon 1551-1556-yillarda bir necha bor Amudaryodan o‘tib, Movarounnahrni qo‘lga kiritishga urindi. Lekin Baroqxon uni har gal mag‘lubiyatga uchratdi. Abdullaxon faqat Baroqxon vafotidan (1556) so‘nggina o‘z dushmanlari ustidan g‘alaba qildi va Movarounnahrni qisman birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Bu kurashda shirin, qushchi, o‘torchi, kenagas, yuz, jaloir, mojar, qipchoq, ming, bahrin va boshqa ko‘chmanchi o‘zbek qavmlari, ruhoniylar, xususan, jo‘yboriy xojalar uni qo‘llab-quvvatladilar. Abdullaxonning bu g‘alabasiga Movarounnahrda boshqa shayboniy sultonlar bilan Navro‘z Ahmadxon (Baroqxon) va uning avlodlari o‘rtasida kuchayib ketgan ziddiyatlar ham yordam berdi. Abdullaxon Baroqxonning o‘g‘li Bobo sulton va Ko‘chkunchixonning nabirasi Javonmardalixon o‘rtasida Samarqand uchun boshlanib ketgan o‘zaro urush-janjallardan ham ustalik bilan foydalandi. U Gadoy sulton va Javonmardalixon bilan ittifoqlashib, Bobo sulton va unga ko‘makka kelgan Toshkent hokimi Darvishxonni Ilono‘tti mavzesida tor-mor keltirdi. Bu g‘alaba Abdullaxonga Nasaf, Chorjo‘y va Movarounnahrning boshqa viloyatlarini egallashi uchun yo‘l ochib berdi¹.

Jo‘yboriylar xonadoni vakili Muhammad Tolib (XVII asr)ning “Matlab ut-tolibin» asarida keltirilishicha, Muhammad Islom Jo‘yboriy ko‘plab shayboniy sultonlar mavjud bo‘lishiga qaramay, aynan Abdullaxonni tanlagan va unga ko‘mak bergan. Jumladan, bu haqda asarda shunday bir qiziq ma’lumot keltiriladi: “Pirmuhammadxon Buxoroda podshoh bo‘lganida (1557-1561) ko‘pincha fayzli Jo‘yborga, hazrat eshoni kalon (Muhammad Islom. - A.Z.) mulozimatiga kelar edi. O‘sha zamonda yosh sultonlar ham tez-tez ziyoratga kelishar, eshoni kalon Abdullohxonni hammadan yuqoriga - o‘z yoniga o‘tirg‘izib, gavharnisor suhbatiga musharraf etar, boshqa sultonlarga esa kam iltifot ko‘rguzar edi. Zamon amirlari hazrat eshoni kalonga shunday arz qilishdi: “Jahon sultonlari va Chingizxondan qolgan rasm shuki, yoshi katta shahzodani boshqalaridan yuqoriroq o‘tirg‘izib izzat kursatishadi. Bu zamonda Pirmuhammadxonning O‘zbek sulton (Abdullaxonning amakivachchasi, Rustam sultonning o‘g‘li - A.Z.)dan umidlari katta. Chunki uning yoshi ulug‘ hamda shijoat va bahodirligi yuqori”. Hazrat eshoni kalon bu havoyi

gaplarni eshitgach, ul qavmga zug‘um qilib dedi: “Darveshlar majlislariga Chingizxon qonunining daxli yo‘q. Agar O‘zbekxonni Pirmuhammad tanlagan bo‘lsa, Abdullohxonni Alloh tanlagan va darveshlar Haq hukmiga tobedirlar!” Hazrat eshoni kalon bu so‘zlarni aytgach, xon amirlari sallalarini boshlaridan olib yerga qo‘yishdi va uzr so‘rashdi”ⁱ.

Shayboniylar sulolasining yirik vakili Abdullaxon (1557-1598) Buxoroni egallash va butun Movarounnahrni uning atrofiga birlashtirishda ham mazkur Xoja Islomning diniy-ma’naviy obro‘yidan foydalandi. Ular o‘rtasidagi munosabatlar bir jihatdan temuriylardan keyin Movarounnahrda yuz bergan qisqa markazlashuv jarayonining rivoj iga va nisbiy barqarorlikning qaror topishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Keyinchalik, 1557-yil Buxoroni Burhon sulton qo‘lidan tortib olishda yuzaga kelgan Abdullaxon - Muhammad Islom kelishuvi muhim rol o‘ynagan.

1557-yil yozida Buxoro yana Abdullaxon tomonidan qamal etildi. Burhon sulton uchun endi hayot-mamot jangi boshlandi. Qamal uzoqqa cho‘zilavergach, Burhon sulton o‘z mahramlari bilan kengashib, Abdullaxondan sulh so‘rashni va bu ishda Xoja Islomni vositachi qilishni rejalashtirdi. Xoja Islomning Burhon sultonga xayrixohligi yo‘q edi. Xoja Islomning Burhon sultonga bo‘lgan xusumati qanchalik kuchli bo‘lmasin, u fuqaro osoyishtaligini ta’minlash zarurligini chuqur anglab, ikkala tomonni murosaga keltirishga bel bog‘ladi va Burhon sulton taklifini qabul qildi. Burhon sulton Xoja Islomdan Abdullaxon oldiga borib sulh so‘rashni iltimos qilganda u shunday degan ekan: “Musulmonlar osoyishtaligi uchun oralarigda sulh tuzmoqchimiz. Sulhni qabul qilmasang Xoja Bahouddin Naqshband pirlariga giriftor bo‘lasan». Shunday deb ko‘rsatkich barmog‘ini xuddi nayzadek qilib Burhon sultonning bo‘yniga qo‘ydi, so‘ng Buxoroning Mozor darvozasidan chiqib Abdullaxon qarorgohiga ravona bo‘ldi. Abdullaxon huzuriga kelib uni sulh tuzishga ko‘ndirdi. Erta saharda Burhon sultonning o‘ldirilganligi to‘g‘risida xabar tarqaldi. Xoja Islom muzokara olib borish uchun Abdullaxon huzuriga kelgan paytida qushchi urug‘idan bo‘lgan Mirzabiy degan kishi Burhon sulton oldiga borib, uni turli yo‘llar bilan aldab o‘z uyiga kelishga ko‘ndirdi va uyiga olib kelib uni halok etdi. Shu tariqa, Ubaydullaxon nasli zanjiri butunlay uzilib, uning avlodidan birorta o‘g‘il voris qolmagan.

Abdullaxon Buxoro hukumatini qo‘lga kiritgach, mavjud an‘analarga sodiq qolgan holda taxtga xonadonning yoshi ulug‘ vakili bo‘lgan amakisi - Balx xoni

Pirmuhammadni oliy hukmdor sifatida taxtga chiqardi. Xutba va tangalar uning nomi bilan bilan bezatildi. Shu tariqa, 1557-1561 yillarda amakisi Pirmuhammadxonni, 1561-1583-yillarda otasi Iskandarxonlarni oliy hukmdor darajasiga ko‘tarib, 1583-1598-yillarda esa o‘zi rasman “xon” unvoni bilan mamlakatni boshqardi.

Mohir sarkarda va diplomat bo‘lgan Abdullaxon mamlakatning tarqoqligini tugatishga va o‘z yerlarini kengaytirishga intiladi. Mamlakat hududini kengaytirish uchun 1574-yil Balxni, 1578-yil Samarqandni, 1582-yil Toshkent, Sayram va Turkistonni, 1583-yili esa Farg‘onani egallaydi. Asta-sekin hujumini kengaytirib 1582-yil Dashti Qipchoqqa yurish qilib Ulug‘tog‘ga qadar borgan. Manbalarda aytilishicha, “Movarounnahrda hukmronlik qilgan Abulxayrxon avlodlaridan birortasi bu qadar shimolga qadami yetmagan edi”. 1583-yil otasi Iskandarxon vafot etgach, mamlakatni o‘z nomidan boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga qarshi 1583-yil ko‘tarilgan Maymana, shuningdek, 1584-1585-yillarda Badaxshondagi tartibsiz g‘alayonlar bostirildi va bu hududlar ham Abdullaxon boshqaruvi ostiga o‘tdi. 1585-yil Ko‘lob, 1587- yil Hirot egallanishi bilan Xuroson hududlari ham davlat tasarrufiga kirdi. Xorazmga esa ikki marta yurish uyushtirildi. 1594-1596-yillarda Xorazmga qo‘shin tortadi va u yerda markaziy hokimiyat qayta tiklanadi.

Abdullaxon II mamlakatni yaxlit holda tiklash uchun qo‘shni davlatlarga ham qarshi hujumlar qilgan. Turkiya Movaraunnahrda o‘z ta’sirini kuchaytirish maqsadida Abdullaxon ibn Iskandarxonga qarshi Bobo sultonga yordam bergan. Shuningdek, Bobo sulton turk askarlari yordamida Abdullaxonga qarshi Nasaf yonida jang qilgan. Keyinchalik, 1583-yil Bobo sulton qo‘shinlari tor-mor keltirilgach, turk askarlari Abdullaxon xizmatiga o‘tgan edi.

Shunday qilib, XVI asr oxiriga kelib Buxoro xonligi Abdullaxon davrida markazlashgan ulkan davlatga aylandi. Buxoro xonligi kuchayib, Movarounnahrda markazlashgan hokimiyatni tiklashga urinishi Xiva bilan bo‘lgan munosabatlarga ham ta’sir o‘tkazdi. Harbiy to‘qnashuvlar va siyosiy kelishuvlar ushbu davrda ikki xonlik o‘rtasidagi aloqalarning muhim jihatlari bo‘lib, bu munosabatlar mintaqadagi umumiy siyosiy muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Abdullaxon II ning Xiva bilan bo‘lgan siyosiy strategiyasi Buxoro xonligining mavqeini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon Markaziy Osiyo tarixida muhim iz qoldirgan. Tarixiy manbalarni tahlil qilish orqali ushbu munosabatlarning chuqurroq tadqiq etilishi mintaq tarixi tushunilishini yanada boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов Б. Ўзбек улуси. Т.: Нур, 1992. –б.58.
2. Ҳофиз Таниш ал–Бухорий. Абдулланом. Биринчи китоб. Т.: Шарқ, 1999. –Б.61.
3. Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. Мусаххир ал-билод. Т.: Янги аср авлоди, 2009. –Б.122.
4. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. T., 2021, –B. 68
5. Абдалов, У. М. (2019). Духовно-культурная жизнь населения хорезмского оазиса до появления "Авесто"(с V-III тысячелетия до VII века до нэ). In инновационные процессы в науке и образовании (pp. 145-147).
6. Эшмурадов, М., & Абдалов, У. М. (2015). Military-administrative Posts and Ranks in the khanate of Khiva during the Reign of Kungirod Dynasty (2nd half of the XIXth century and the beginning of the XXth century). Молодой ученый, (7), 656-658.